

Mantiqiy savollar:

3-savol

Қонунни имзолаш ва эълон қилишнинг ўзига хос хусусиятлари ва тартибини тушунтириб беринг.

Қонун давлат ҳокимиятининг maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo'lmish qonun, hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi. Qonun ijodkorligi bir necha bosqichlardan iborat. Xususan, qonunchilik tashabbusi, qonun loyihasini muhokama qilish, qonunni qabul qilish, qonunning Senat tomonidan ma'qullanishi va nihoyat, qonunni imzolash va e'lon qilish. Qonun loyihasi dastlab Qonunchilik palatasida so'ngra Senatda ko'rib chiqilishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 84-moddasiga ko'ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilgan hamda maqullangan qonun 10 kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga yuboriladi. Senat uni 10 kun ichida ko'rib chiqib, yoki maqqulaydi, yoki quyi palataga qaytaradi. Agarda qonun senat tomonidan rad etilsa, Qonunchilik palatasi tomonidan qayta ko'rib chiqiladi. Qayta ko'rib chiqish davomida qonun umumiy deputatlarining uchdan ikki qismi tomonidan maqullansa, bu Oliy Majlis tomonidan maqullaganligini bildiradi. Shuningdek rad etilgan qonun yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun kelishuv komessiysi tuzilishi mumkin. Buyuk britaniyada xuddi shunday holatda boshqacha tartib mavjud, ya'ni Ikkita palata mavjud bo'lib, ular, Lordlar palatasi va Jamoalar palatasi o'rtasida nizo bo'lsa, Jamoalar palatasi ustunligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 93-moddasining 17-bandida "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi; qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqli"¹ ekanligi belgilab qo'yilgan demak qonun Oliy Majlis tomonidan maqullansa, imzolash va e'lon qilish uchun O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga yuboriladi. Prezident 30 kun mobayninda qonunni imzolaydi va e'lon qiladi. Prezident qonunni Oliy Majlisga e'tirozlar bilan qaytarish vakolatiga ham ega. Agarda Prezident tomonidan rad etilgan qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari umumiy soninig uchdan ikki qismi tomonidan maqullansa, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bu qonunni 14 kun ichida imzolashi va e'lon qilishi kerak. AQSH qonunchiligida ham xuddi shunday amaliyot mavjud: Prezident veto huquqiga ega bo'lsada, Kongresning ikkala palatasi uchdan ikki qismi tomonidan qonunning maqullanishi uning kuchga kirganligini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

¹ <https://www.lex.uz/ru/docs>

tomonidan imzolangan qonun saqlash va e`lon qilish uchun Oliy Majlisga yuboriladi. Agarda qonunda boshqacha nazarda tutilmagan bo`lsa, rasmiy e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasida "Normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi kerak. Rasmiy e'lon qilinmagan qonun asosida hech kim hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan. Zero, normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.²

96-savol

Шарҳлашни амалга ошириш усуллари ни муҳокаам қилинг ва уларга ҳуқуқий баҳо беринг.

Huquq normalarini sharhlash-shu normaning inson instenkti tomonidan to`g`ri anglanishini ta`minlaydi, nafaqat ta`minlaydi, balki uning mazmunini yaqqol ochib beradi. Shu sababli normalarning turli ma`nolarda talqin qilinishini oldi olinadi.

Huquqiy normaning mazmunini to`laqonli yoritishda turli xil usullardan foydalaniladi. Olimlar sharhlashga ikki xil yondashadilar: statik va dinamik yondashuv.

Statik yondashuvda sharhlovchi subyekt huquqning barqarorligini saqlashga harakat qiladi.

Dinamik yondashuvda sharhlovchi huquqning mazmunini yoritishda ko`proq hayotiy voqelikka yaqinlashtirishga harakat qiladi.³

Huquqshunoslik fanida huquqni sharhlash usullari xususida turlicha talqinlar mavjud bo`lib, ular quyidagilar:

Gramatik sharhlash usuli. Har bir huquq normasi matn shaklida ommaga taqdim etilar ekan, uning gramatik tahlili muhimdir. Gramatik tahlil deganda matnda ishlatilgan iboralarning amaldagi til qoidalariga to`g`ri kelishini tekshirish tushuniladi va shu orqali ularning axamiyati hamda mazmuni aniqlanadi. Avvalo huquq normalarini yaratishda ommaga tushunarli iboralardan foydalanish va ularni izohlash foydalidir. Masalan: "O`zbekiston Respublikasining axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to`g`risida"gi qonunni gramatik sharhlashni yengilashtirish uchun 3-moddada asosiy tushunchalarga izoh berib o`tilgan. Unga ko`ra Axborot tlevideniyada qo`yiladigan dastur emas, balki manbalari va taqdim

² Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYU 2018. – 220 b.

³ Davlat va huquq nazariyasi. Akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanma/ X.T. Odilqoriyev-T.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 336 b.

etilish shaklidan qat'iy nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlardir.

Tizimli sharhlash usuli. Bir ijtimoiy munosabat bir nechta norma orqali tartibga solinishi mumkin. Mana shunday vaziyatlarda ularni sharhlash uchun bu normalar tizimlashtiriladi hamda mazmunan tahlil qilinadi. Tizimli sharhlash orqali normalar o'rtasidagi ziddiyatlar, tafovutlar va bo'shliqlar aniqlanadi. Shuningdek, bu usul orqali rasman aniqlanmagan ammo yangi qonun qabul qilinishi oqibatida o'z kuchini yo'qotgan normalar ham ma'lum bo'ladi. Ko'pchilik qonunlarda "boshqa qonunda nazarda tutilgan istisnolar bundan mustasno" kabi iboralarni uchratishimiz mumkin natijada ayrim tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Aynan tizimli sharhlash mana shunday muommolarni oldini oladi. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-modda. Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.⁴

Mantiqiy sharhlash usuli. Shunday normalar mavjudki ularni to'g'ridan to'g'ri ma'no jihatdan emas mantiqiy, ya'ni huquqshunos nazarda tutgan mazmun orqali anglash kerak. Qisqacha qilib aytganda normadan xulosa chiqarish uning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlaydi. Masalan: "Mulkka qasddan zarar yetkazish qonunga binoan jazolanadi" deyiladi bunda o'z-o'zidan mulkka qasddan zarar yetkazish emas, balki shu faoliyat bilan shug'ullangan shaxsning jazolanishi tushuniladi.

Tarixiy-siyosiy usul. Qonunlarning yaratilishi ma'lum bir ijtimoiy talab va vaziyatni taqazo etadi. Albatta qonunlarning yaratilish tarixini bilish uning siyosiy maqsadini bilish demakdir. Bu huquqiy normalarning sifatini oshirishga yordam beradi.

Funksional usul. Qonunni amalga oshirishda alohida vaziyat yoki sharoit mavjud bo'lishini taqazo etuvchi normalarga murajaat qilinishi tabiiy. Bunday vaziyatlarda normalarni funksional usul orqali sharhlashdan foydalaniladi. Jumladan, ma'naviy zarar hajmini belgilashda adolat va oqillik talablari, shuningdek ma'naviy zarar keltirgan daliliy holatlar e'tiborga olinishi lozim.⁵

Maxsus yuridik usul. Bazi normalarni sharhlash uchun maxsus yuridik bilim talab etiladi. Bu normalar maxsus yuridik bilimlar asosida sharhlanishi kerak.

⁴ Konstitutsiya.:T"ADOLAT"2019.29b

⁵ Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi.Darslik.–Toshkent: TDYU 2018. – 220 b.

1-Kazus

Хуқуқ тизими ва ҳуқуқий тизими мавзусини ўқиётган талаба Абдулазизда бир неча саволлар пайдо бўлди. Мисол учун, ҳуқуқ тизими ва қонунчилик тизими ўртасидаги фарқни тўлиқ эмаслиги уларни фарқлаш учун чуқур билим ва таҳлил этиш қобилияти керак эканлигини тушуниб етди.

Шунинг учун ҳам бу борада ўқитувчининг фикрини билишга қизиқди. Ўқитувчи Ш.Хайитов унга икки тушунча ўзаро фарқли эканлигини қонунчилик тизими ҳуқуқ тизимининг ташқи кўриниши эканлигини ва тизимлаштириш қўлланилиши мумкинлигини билдириб ўтди.

Хуқуқ тизими ва қонунчилик тизими ўртасидаги 5 та фарқли жиҳатларни топган уларни таҳлил этинг.

Huquq tizimi – huquqning ichki qurilishi – tarkibi bo‘lib, u huquqning qanday qismlardan iborat ekanligini va qismlar o‘rtasidagi munosabat hamda nisbatni ko‘rsatadi. Uning belgilovchi omili ijtimoiy munosabatlar va ularning real manzarasi. Ma‘lum bir jamiyat uchun huquqning umumiy belgilari hamda tizimlashgan qoidalaridir. U o‘z ichiga huquq institutlari va huquq soxalarining qat‘iy joylashuvini ham qamrab oladi. Har bir tizimning mohiyati shu tizimni vujudga keltiruvchi qoida va mezonlardir. Aynan shu orqali huquq tizimining qanday asoslarga ko‘ra tashkil etilganligi ochib beriladi. Shu tizimning modiylashishi qonunchilik tizimini vujudga keltiradi. Qonunchilik tushunchasi davlatdagi barcha huquqiy-normativ hujjatlarning tizimlashgan hamda uyg‘unlashgan yig‘indisini anglatadi. Ular yaxlit tushunchani tashkil etsa-da, bir biridan faqlanadi. Huquqning mazmuni huquq tizimi bo‘lsa, huquqning shakli qonunchilik tizimidir. Ularni farqlovchi belgilar beshta:

Birinchi. Huquq tizimining boshlang‘ich elementi huquq normasi, ya‘ni davlat tomonidan o‘rnatilgan, xokimiyat xarakteriga ega bo‘lgan xatti xarakat qoidasidir. Qonunchilik tizimining boshlang‘ich elementini qonunning moddasi yoki normativ-huquqiy hujjat moddasi tashkil etadi. Huquq tizimi obyektiv xususiyatga ega bo‘lib, uning vujudga kelishiga ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi katta ta‘sir ko‘rsatadi. Qonunchilik tizimi esa, subyektiv xususiyatga ega bo‘lib, uning vujudga kelishida qonun chiqaruvchi hokimiyat irodasi alohida o‘rin tutadi. Qonun ijod etilayotganda huquqiy tizim xususiyatlaridan kelib chiqib ish tutiladi.

Ikkinchi. Qonunchilik tizimi baz‘an o‘z mazmuniga ko‘ra huquq tizimidan kengroq bo‘lishi mumkin. U umumiylikdan yiroq bo‘lgan maqsad va dasturlarni ham o‘z ichiga oladi. Huquq tizimi esa, nisbatan umumiy huquq

prinsiplariga ega, ya'ni huquq tarmoqlari va institutlarining bu kabi elementlarini nazarda tutmaydi.

Uchunchisi. Huquq tizimi huquqiy tartibga soluvchi o'z predmeti va metodiga ega. Bu huquq tizimini institut va tarmoqlarga bo'lib tartibga solishdir. Qonunchilik tizimi davlat yo'nalishlari va predmetiga ega bo'lsa-da, yagona tartibga solish metodiga ega emas.

To'rtinchisi. Huquq tizimi, uning tarmoqlari mazmuni bir turli bo'ladi, ya'ni ma'lum bir huquq tarmog'i faqat bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni mazmuni bilan bog'liq bo'ladi. Qonunchilik tizimi esa, turli yo'nalishdagi va xarakterdagi munosabatlarni tartibga soladi.

Beshinchisi. Huquq tizimining tuzilishi va qonunchilik tizimining tuzilishi bir biridan farqlanishi mumkin. Masalan: huquq tizimining vertikal tuzilishi – uning normalarga, institutlarga, sohalarga bo'linishini aks ettiradi. Qonunchilik tizimining esa, davlat organlari iyerarxiyasini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Huquq tizimi qonunchilik tizimiga nisbatan keng tushuncha bo'lib, huquqning barcha manbalari: odat, tomoyillar, ananalarni qamirab oladi. Shu qoidalar asosida davlat tomonidan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish mexanizimi tashkil etiladi, ya'ni qonunchilik tizimi shakillanadi.